

## O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA TARMOQLARNING TUTGAN O‘RNINI STATISTIK BAHOLASH

*Xujakulov Xaitmurat Djavlievich,*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*“Iqtisodiy statistika” kafedrasida professori*  
[khaitmurat\\_kh@mail.ru](mailto:khaitmurat_kh@mail.ru)

*Ro‘ziyev Alisher Ibroimovich*  
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*  
*“Iqtisodiy statistika” kafedrasida dotsenti.*  
[aisherruziev1986@mail.ru](mailto:aisherruziev1986@mail.ru)

**Annotatsiya.** Maqolada iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda tarmoqlarning o‘rni va roli, xalqaro tasniflashlar asosida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarmoqlar ulushi va dinamikasi tahlil qilingan, shuningdek sanoat tarmog‘ini yanada strategik rivojlantirish yo‘nalishlari qayd etilgan.

**Kalitli so‘zlar:** sanoat, mahsulot, tarmoq, YaIM, qo‘shilgan qiymat, ishlab chiqarish, tarkibiy siljishlari, tarmoqlar ulushi, o‘zgarish sur‘atlari.

Moddiy ne‘matlar ishlab chiqaradigan soha tarmoqlari orasida eng salmoqli o‘rin egallagani va etakchisi sanoat tarmog‘idir. Respublikamizda yalpi ichki mahsulotning qariyb 25 foizi sanoat tarmog‘ida yaratiladi. Iqtisodiyot barcha tarmoqlarining muvaffaqiyatli o‘rishining garovi ushbu tarmoqning rivojlanish darajasi sur‘atiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining 3 ustuvor yo‘nalishida “Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish” [1] vazifalari belgilangan.

Hozirgi davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoq va sohalarida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish tufayli jahon bozorida raqobatga bardosh beradigan pirovard tovarlarni tashqi dunyoga sotish orqali eksport salohiyatini mustahkamlashning imkoniyatlari yaratilmoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida “... iqtisodiy o‘rishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi” [2] – deb ta’kidlagan edilar.

Investitsiyalarni ishlab chiqarish sohalariga yo‘naltirishi natijasida, mamlakatda mustaqillik yillarida mutlaqo yangi sanoat tarmoqlari yaratildi, jumladan avtomobilsozlik, neftgazkimyo, neftgaz mashinasozligi, hozirgi zamon

# BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

qurilish materiallari sanoati, temir yo‘l mashinasozligi, maishiy elektronika, farmasevtika, zamonaviy oziq-ovqat va to‘qimachilik sanoati va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi real sektorida faoliyat yuritayotgan korxonalarni rivojlantirish hamda ular o‘rtasida raqobat muhitini shakllantirish, mamlakat yalpi ichki mahsuloti hajmini o‘shirishda real sektor korxonalarining o‘ziga xos o‘ringa egaligi, ularning raqobatbardosh va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga bo‘lgan intilishlarini yanada oshirdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda sanoat mahsulotlarining o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun sanoat tarmog‘ini rivojlantirishning dolzarbligi doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo‘lgan. Jumladan, A.Ortikov “O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari”ga [4], M.P.Narziqulov “Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e‘tibor tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilganligi”ga [5], E.X. Maxmudov “Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo‘nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish”ga [6], Xujakulov X.D., Sayfullaev S.N. “O‘zbekiston sanoati tarmog‘ining tarkibiy o‘zgarishlarini xalqaro tasniflash asosida statistik o‘rganish”ga [7], Mamadjanov D.G. “O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash”ga [8] bog‘liqliklariga alohida to‘xtalib o‘tishgan.

2022 yilning yakunlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 5,7 foiz, (2020 yilda 1,9%)ga, sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmi 2,6 foiz (2020 yilda 0,9%)ga oshib, ishlab chiqarilgan mahsulotlarning qariyb 70 foizini yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan tayyor tovarlar tashkil etdi. Respublikamiz korxonalari tomonidan 2022 yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi joriy baholarda 553,2 trln. so‘mni yoki o‘shirish sur‘ati 105,3 foizni tashkil qilib, 2010 yilga nisbatan tarmoqda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning o‘shirish sur‘ati 188,6 foizga (170,1:90,2), o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘shirish sur‘ati 5,4 foizdan ziyodga teng bo‘ldi (1-jadval).

**1-jadval**

## O‘zbekistonda asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning hajmi va dinamikasi

Yillar	YaIM va YaQQ hajmi 2020 yil baholarida, trln. so‘m			2020 yil baholarida aholi jon boshiga, ming so‘m		
	YaIM	Tarmoqlarning YaQQ		YaIM	YaQQ	
		jami	shundan sanoatda		barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda
A	1	2	3	4	5	6
2010	338,9	311,3	90,2	11865,2	10898,9	3158,0
2011	364,4	335,3	94,1	12420,2	11428,3	3207,3

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

2012	390,2	360,4	99,5	13105,2	12104,3	3341,8
2013	418,7	387,1	106,9	13844,4	12799,6	3534,7
2014	447,6	414,2	111,8	14552,5	13466,5	3634,9
2015	479,8	444,4	117,7	15329,6	14198,6	3760,5
2016	508,1	471,1	124,0	15954,0	14792,2	3893,5
2017	530,5	491,3	130,5	16379,2	15168,9	4029,2
2018	559,1	517,4	144,6	16965,0	15699,7	4387,7
2019	591,0	547,4	151,8	17599,4	16301,1	4520,5
2020	602,2	557,8	153,2	17591,7	16294,6	4475,3
2021	646,8	599,6	166,5	18524,9	17173,1	4768,7
2022	683,7	637,2	170,1	19179,1	17874,7	4772,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Umuman sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat o‘zining qo‘shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o‘rni va yuqori darajaga ega bo‘lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog‘ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o‘stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko‘payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Sanoat tarmog‘i yirik ishlab chiqarish instituti bo‘lishi bilan birgalikda, aholini ish bilan ta‘minlash va yangi ish joylarini tashkil etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarmoqda ish bilan band bo‘lganlar soni 2010 yilda 1605,7 ming kishini, 2015 yilda 1768,7 ming kishini, 2020 yilda 1809,5 ming kishini, 2021 yilda 1863,2 ming kishini, 2022 yilda 1810,6 yoki iqtisodiyotda band bo‘lganlarning mos ravishda 13,8; 13,5; 13,7; 13,8 va 13,2 foizni tashkil qilgan. Natijada 2022 yilda 2010 yilga nisbatan band bo‘lganlar soni tarmoqda 12,8 foizga ko‘paygani holda, butun iqtisodiyotda bu ko‘rsatkich 13,2 foizga teng bo‘lgan. Sanoat jahon iqtisodiyotida ishtirok etayotgan davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlashga yordam beradi. Natijada, barcha mamlakatlarning tabiiy, mehnat va moliyaviy resurslari, fan-texnikaning barcha yutuqlaridan oqilona foydalanish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa o‘z navbvtida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ta‘minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materillari ishlab chiqarish, engil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirishni talab etadi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘lganligini ta‘kidlash joiz. 2022 yilda 2010 yilga qaraganda YaIM va tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida mos ravishda

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

sanoatning hissasi 8,4 va 8,0 foiz bandga va qurilishda 1,4 va 1,3 foiz bandga oshgan bo‘lsa, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 3,6 va 5,5 foiz bandga va xizmatlar sohasida 1,2 va 3,8 foiz bandga pasayganligini ko‘rishimiz mumkin.

**2-jadval**

### O‘zbekistonda YaIM va tarmoqlar yalpi qo‘shilgan qiymati (YaQQ) hajmining o‘zgarishi ko‘rsatkichlari

Yillar	YaIM va YaQQ hajmining o‘zgarish sur‘ati, %			Tarmoqlar YaQQning YaIMdagi ulushi, %		Sanoatning qo‘shilgan qiymati ulushi, %	
	YaIM	YaQQ		barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda	Tarmoqlar YaQQda	Sanoat mahsuloti hajmida
		barcha tarmoqlar bo‘yicha	shundan sanoatda				
A	1	2	3	4	5	6	7
2010	107,1	107,5	105,9	88,0	16,5	18,7	34,1
2011	107,5	107,7	104,4	88,7	15,4	17,4	33,5
2012	107,1	107,5	105,7	88,8	16,1	18,1	35,6
2013	107,3	107,4	107,5	89,6	16,6	18,5	35,9
2014	106,9	107,0	104,5	90,2	17,2	19,1	38,3
2015	107,2	107,3	105,3	90,9	17,4	19,1	39,4
2016	105,9	106,0	105,4	91,2	17,8	19,5	40,6
2017	104,4	104,3	105,2	89,0	18,8	21,1	40,0
2018	105,4	105,3	110,8	89,3	22,6	25,3	40,1
2019	105,7	105,8	105,0	91,5	25,7	28,1	42,2
2020	101,9	101,9	100,9	92,6	25,4	27,5	41,5
2021	107,4	107,5	108,7	93,0	25,8	27,3	42,0
2022	105,7	106,2	102,6	93,2	24,9	26,7	40,0

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Bu kabi tarkibiy siljishlar natijasida tarmoqlar YaQQning YaIMdagi ulushi 5,0 foiz bandga oshib, mahsulotlarga sof soliqlar ulushi 12 foizdan 7,0 foizgacha pasaygan (2- va 3-jadvallar).

Respublikamizda 2022 yilda 2010 yilga nisbatan YaIMning o‘shish sur‘ati 2 martani, tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati 2 barobardan ziyotni, sanoat tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymat esa 189,4 foizni tashkil etgani holda, 2010-2022 yillarda o‘rtacha yillik qo‘shimcha o‘shish sur‘ati YaIM, tarmoqlar va sanoatning qo‘shilgan qiymatlari bo‘yicha mos ravishda 6,0 ; 6,1 va 5,5 foizga teng bo‘lib, sanoat tarmog‘ida qo‘shilgan qiymatning ilgarilash koeffitsienti YaIM va tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymatiga nisbatan tegishli holda 94,7 foizni va 92,8 foizni tashkil etgan. Bu ma‘lumotlar sanoat tarmog‘ida ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati dinamikada bir muncha past bo‘lganligidan dalolat beradi. Olib borilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida 2010-2022 yillarda aholi jon to‘g‘ri kelgan YaIM, tarmoqlarning YaQQ va sanoat

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

tarmog‘ida qo‘shilgan qiymat hajmi tegishli holda 61,6; 64,0 va 51,1 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin (1- va 2- jadvallar).

**3-jadval**

### O‘zbekistonda YaIM va YaQQ hajmida tarmoqlar hissasi o‘zgarishi (foiz hisobida)

Yillar	YaIM hajmi, amaldagi bahoda, trln.so‘m	Tarmoqlar ulushi, % (sanoat tarmog‘isiz)					
		Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi		Qurilish		Xizmatlar	
		YaIMda	Tarmoqlar YaQQda	YaIMda	Tarmoqlar YaQQda	YaIMda	Tarmoqlar YaQQda
A	1	2	3	4	5	6	7
2010	78,9	27,0	30,6	4,8	5,4	39,9	45,3
2011	103,2	29,7	33,5	4,4	4,9	39,2	44,2
2012	127,6	28,9	32,6	4,4	4,9	39,4	44,4
2013	153,3	27,8	31,0	4,8	5,3	40,5	45,2
2014	186,8	28,7	31,8	4,9	5,4	39,4	43,7
2015	221,4	29,2	32,1	5,1	5,7	39,1	43,1
2016	255,4	29,3	32,1	5,1	5,6	39,0	42,8
2017	317,5	28,7	32,2	4,8	5,4	36,8	41,4
2018	424,7	26,8	30,0	5,2	5,8	34,8	38,9
2019	529,4	24,6	26,9	5,8	6,3	35,3	38,7
2020	602,2	25,1	27,1	6,2	6,7	35,8	38,7
2021	734,6	25,0	26,5	6,2	6,6	35,7	39,6
2022	888,3	23,4	25,1	6,2	6,7	38,7	41,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Respublikamizda IFUT yangi strukturasi bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqlar ulushi 4-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar bilan tavsiflanadi. Jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, 2010 yilda jami sanoat mahsulotining 13,4 foizi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (V) da yaratilgan bo‘lsa, 75,4 foizi ishlab chiqaradigan sanoat (S)ga to‘g‘ri kelgan, 2022 yilda bu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9,4 va 83,2 foizni tashkil etgan, ya’ni 2010 yilga nisbatan 4,0 foiz bandga pasaygan va 7,8 foiz bandga oshgan. Ishlab chiqaradigan sanoat (S-seksiya) sohasida metallurgiya sanoati eng katta salmoqqa ega bo‘lib, 2022 yilda 23,3 foizni tashkil etgan va 2010 yilga nisbatan 10,5 foiz bandga jadallashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning o‘shish sur‘ati va dinamikasini tarmoqda yaratilgan qo‘shilgan qiymatning fizik hajmi indeksi asosida aniqlamoqda. Bunday hisob metodologik jihatdan to‘g‘riligini e’tirof etishimiz lozim, chunki ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi iqtisodiyotda pirovard mahsulot bo‘lmaydi, bu esa takroriy hisoblar va oraliq iste’molining mavjudligi bilan izohlanadi. Biroq alohida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlari bo‘yicha mahsulot

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

hajmi va uning dinamikasini aniqlab, iqtisodiy jarayonni tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Iqtisodiyotning samaradorligini oshirishda eng muhim omil bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish hisoblanadi.

**4-jadval**

### Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarkibiy o‘zgarishlar va tarmoqlar ulushi


Yiriklashtirilgan seksiyalar bo‘yicha sanoat tarmoqlari	Yillar							
	2010	2015	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Sanoat mahsuloti hajmi (B, C, D, E) – jami, mlrd. so‘m	3811 9,0	9759 8,2	14881 6,0	23534 0,7	32253 5,3	36874 0,2	45605 6,1	55326 5,0
Shu jumladan jamiga nisbatan, %:								
B. Tog‘- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	13,4	9,7	10,3	12,3	13,5	9,0	9,6	9,4
C. Ishlab chiqaradigan sanoat	75,4	80,5	81,1	80,6	79,0	83,0	82,9	83,2
D. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	10,7	9,2	7,8	6,2	6,8	7,4	6,8	6,8
E. Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	0,5	0,6	0,8	0,9	0,7	0,6	0,7	0,6

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Sanoat ishlab chiqarishning fizik hajmi indeksi, %:								
Butun sanoat bo‘yicha	105,9	105,3	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,3
B. – seksiya bo‘yicha	94,8	102,9	117,6	126,5	99,4	78,0	110,8	101,9
C. – seksiya bo‘yicha	108,9	105,9	104,2	107,9	106,6	107,9	108,3	105,4
D. – seksiya bo‘yicha	118,5	105,1	95,5	103,1	105,1	106,8	111,8	113,5
E. – seksiya bo‘yicha	118,6	106,8	108,0	111,3	102,2	99,1	82,3	94,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif hisoblamasi.

Shu bois tarmoqlarda ilg‘or zamonaviy yuqori texnologiyalardan foydalangan holda, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda oraliq iste‘moliga sarflar tejimini ta‘minlash zarur. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda oraliq iste‘molining hissasi 2010 yildagi 65,9 foizdan 2022 yilda 60,0 foizgacha pasaygan bo‘lsada, hanuzgacha yuqori salmoqni tashkil etmoqda (2-jadval, 2-diagramma).



**2-diagramma.** Sanoat mahsuloti hajmida qo‘shilgan qiymatning va oraliq iste‘molining ulushi (jamiga nisbatan, foizda).

Iqtisodiyotning taraqqiy etishida tarmoq va sohalarda ilg‘or yuqori texnologiyalarni qo‘llash va keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning salmog‘i hali talab darajasida emas. Aytaylik, iqtisodiyotning drayveri hisoblangan ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020 yilda yuqori texnologiyali tarmoqlarning ulushi 2,0 foizni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 22,4%, o‘rta-quyi texnologiyali – 39,9% va quyi texnologiyalisi 35,7 foizni, 2021 yilda esa bu ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 2,7; 20,1; 39,4 va 37,7 foizni tashkil etgan.

## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Demak, shunday vaziyatdan kelib chiqqan holda, yuqori texnologiyali tarmoqlarning salmog‘ini oshirish maqsadga muvofiq.

Sanoat ishlab chiqarishining seksiyalar bo‘yicha fizik hajm indeksleri 2022 yilda 2010 yilda nisbatan B seksiyada 130,2 foizni, C seksiyada 232,6 foizni, D seksiyada 150,8 foizni, E seksiyada 164,6 foizni tashkil etgan (4-jadval).

Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibida sanoatning hissasini oshirish maqsadida tarkibiy o‘zgartirish, mahalliy mineral xom-ashyo resurslarini yanada chuqur qayta ishlash asosida ishlab chiqarish hamda etakchi tarmoqlarni faol diversifikatsiya va modernizatsiya qilishni amalga oshiruvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish bo‘yicha kompleks chora–tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Keyingi yillarda sanoat tarmog‘ida tarkibiy o‘zgarishlar natijasida sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi salohiyati sezilarli darajada oshgan bo‘lsada, biroq sanoat majmunga kiritilgan investitsiyalar tarmoq mahsulotlari eksporti salmog‘ining oshishiga talab darajasida hissa qo‘sha olmasdan, asosan ichki bozor uchun mahsulot etkazib berish bilan cheklanmoqda.

Kelgusida mamlakat sanoati rivojlanishini ta‘minlovchi quyidagi yo‘nalishlarni taklif etamiz:

- investitsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, keng ko‘lamli ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan loyihalar ishlab chiqish;
- korxonalarda innovatsion salohiyatni takomillashtirish, ilm va yuqori texnologiya talab qiladigan yangi korxonalar tashkil etish va import mahsulotlari bilan raqobatlasha oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish;
- sanoatda xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlik ulushini oshirish va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonining 48 maqsadida sanooatning “drayver” sohasini rivojlantirish borasida “Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollorga etkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish” [3] vazifalari belgilangan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning barchasi mamlakatimizning makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlashga va oshirishga, aholining turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgandir.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyovning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4056>.



## BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6600413>
4. Ортиков А. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.
5. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. ВақтпаРгез\$, 2012. С. 8.
6. Махмудов Э.Х., Ортиков А., Каримов Ф. Корхона иқтисодиётнинг асосий бўғини. / Ҳамкор. 2010 йил 7 феврал.
7. Хужакулов Х.Д., Сайфуллаев С.Н. Ўзбекистон саноати тармоғининг таркибий ўзгаришларини халқаро таснифлаш асосида статистик ўрганиш// “Иқтисодиёт ва таълим” журнали, 2017, 6-сон, 129-134-бетлар.
8. Mamadjanov D.G. O‘zbekistonda sanoat tarmog‘i rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini baholash. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. 2018, 3-son may-iyun.
9. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi sayti.
10. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
11. Чориев И.Х. (2023). Молиявий ҳисоботлардаги хатоликларни аниқлашда таҳлилий амаллардан фойдаланишнинг услубий жиҳатлари. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 1, February 2023.
12. Қличев, Б. (2022). КРІ ТИЗИМИ АСОСИДА МОДДИЙ РАЎБАТЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ ТАҲЛИЛИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1343>
13. Klichev Bakhtiyar Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
14. Чориев И.Х. (2023). Молиявий инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting*, Issue 2, April 2023.
15. U.K. Yakubov, G.S. Maxmudova. (2022). Biznes tahlil: Operatsion tahlil-1,2. (Darslik). –Т.: “Nihol print”, 205 б.
16. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>

17. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199-205.
18. Tulaev, M. (2024). Moliyaviy hisobot konsepsiyalari. *Nordic\_Press*, 2(0002).
19. Kasimovich, Y. U. (2021). Developing A Model On The Basis Of A System Of Indicators Determining The Efficiency Of Foreign Trade Activities. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
20. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
21. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
22. [Tulaev, M. \(2024\). T BUXGALTERIYA HISOBINING SCHYOTLARI VA ULARNING MOHIYATI. Nordic\\_Press, 2\(0002\).](#)
23. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to‘plami. Termiz, O‘zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
24. Қличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
25. Klichev, B.P., Choriev, I. X. (2021). The Issues Of Business Activity Organization In Uzbekistan. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI)*. Volume 12, Issue 7, July 2021: 4587-4593.- [URL:https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4494](https://www.tojq.net/index.php/journal/article/view/4494)
26. Abdullayev, A., & Djamalov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.